

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



**«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»**

MAVZUSIDAGI XALQARO II MIY-AMALIY ANJUMAN



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE



ANDIJON-2024. 10-IYUN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN



«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o‘tkazilishini ta‘minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida “Ingliz tili nazariy aspektlari”, “Ingliz tili va adabiyoti” hamda “Ingliz tili amaliyoti” kafedralari tomonidan “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

Mas‘ul muharrir(lar):

f.f.n., prof. S.O.Solijonov

Tahrir hay‘ati:

f.f.d.prof. D.A.Rustamov
f.f.d.prof. M.I.Umarxo‘djayev
PhD. dots. M.A.Qurbonov
f.f.d.prof. G‘.M.Xoshimov
f.f.d.prof. V.A.Vositov
PhD. dots. M.G‘.Xoshimov
p.f.n. prof. Sh.S.Alimov
PhD. G.M.Ibragimova
PhD. Q.Umrzakov
kafedra o‘qituvchisi N.Xamidov
kafedra o‘qituvchisi Z.No‘monova

Tahrir nashriyoti bo‘limi muharriri:

A.A.Xomidov

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to‘plam, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag‘ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to‘plamdan respublika va xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil

2. Qo'ng'urov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik hususiyatlari.- Toshkent, 1980.
3. <https://wikipedia.com>

NEMIS NIKOH TO'YLARIDAGI KELIN VA KUYOV VA'DALARINING LINGVISTIK TAHLILI

Sidikjon Muminov Mirsobirovich,
Farg'ona davlat universiteti professori, f.f.d.
Qobil Kaxarov Shuhrat o'g'li,
Farg'ona davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d., (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola nemis nikoh to'ylaridagi kelin va kuyov va'dalarining lingvistik tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida bu va'dalarning strukturalari, semantik mazmuni o'rganilgan. Maqolada kelin va kuyovning bir-birlariga bo'lgan chuqur muhabbati, sadoqat va hurmatlarini ifoda etuvchi lug'aviy birliklar tahlil qilingan.

Аннотация: Данная статья посвящена лингвистическому анализу клятв жениха и невесты на немецких свадебных церемониях. В ходе исследования изучены структуры и семантическое содержание этих клятв. В статье проанализированы лексические единицы, выражающие глубокую любовь, преданность и уважение жениха и невесты друг к другу.

Annotation: This article is dedicated to the linguistic analysis of the vows of brides and grooms in German weddings. During the research, the structures and semantic content of these vows were studied. The article analyzes the lexical units that express the deep love, loyalty, and respect between the bride and groom.

Kalit so'zlar: kelin, kuyov, do'st, nikoh vadalari, marosim, oilaviy qadriyatlar, muhabbat va sadoqat, o'zaro ishonch.

Ключевые слова: невеста, жених, друг, свадебные клятвы, церемония, семейные ценности, любовь и преданность, взаимное доверие.

Keywords: bride, groom, friend, wedding vows, ceremony, family values, love and loyalty, mutual trust.

Ma'lumki, butun dunyo xalqlarida, ayniqsa, islom dinidan tashqari barcha xalqlarda, to'y marosimidagi eng hayajonli lahzalar kelin va kuyovning bir-birlariga beradigan va'dalari muhim ahamiyatga ega va to'y marosimiga o'ziga xos tus bag'ishlaydi. To'y va'dalaridagi asosiy g'oya kelin-kuyovning bir-birlariga sog'liq va kasallikda, toki o'lim ularni ajratmaguncha, Alloh oldida abadiy sodiqlikni to'yga tashrif buyurganlar guvohligida va'da qilishidan iboratdir [3, 279]

Nemis xalqida to'y va'dalari kelin va kuyov tomonidan maxsus tayyorlanishi yoki shu vaqtgacha qo'llanilib kelingan klassik nikoh vadalari/qasamlari (Eheversprechen)dan foydalanishlari mumkin. O'zlari tomonidan tayyorlangan qasamlarda ular sevgilari haqida biror narsa aytishlari va o'zaro munosabatlariga doir kichik latifalar, birgalikdagi hayotlari va kelajak bilan bog'liq orzularini bayon etishlari ham mumkin [4, 75]

Va’dalar tuzilishi yoki ko‘rinishi jihatidan ikki turga, ya’ni kichik va katta va’dalarga bo‘linadi. Biz quyida kichik va’dalardan misollar keltirib, ularning leksik va semantik xususiyatlarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Masalan, „Mein Schatz, heute ist der schönste Tag in meinem ganzen Leben und ich dachte eigentlich, dass nichts mehr den Tag toppen könnte, an dem ich Dich kennengelernt habe. Du bist mein Ein und Alles und die Liebe meines Lebens. Ich verspreche Dir, Dich für immer bedingungslos zu lieben und zu unterstützen. Immer ehrlich zu Dir zu sein, Dir zu vertrauen und Dich zu achten. Ich freue mich, Dich dann endlich meinen Ehemann / meine Ehefrau zu nennen und so viele schöne Momente noch mit Dir teilen zu dürfen.“ (Bugun butun hayotimdagi eng go‘zal kun va men Seni uchratgan kunimni hech narsa o‘rnini bosa olmaydi, deb o‘ylayman. Sen mening hamma narsam va hayotimning muhabbati. Men Seni abadiy shartsiz sevisga va qo‘llab-quvvatlashga, doimo Senga sodiq bo‘lishga, Senga ishonishga va Seni hurmat qilishga va’da beraman. Nihoyat, Seni erim/xotinim deb atashdan va Sen bilan juda ko‘p go‘zal lahzalarni birga bo‘lishishdan xursandman.) [1, 132]

Ko‘rinib turibdiki, mazkur kelin va kuyov o‘rtasidagi va’da yoki qasamyod nutqida «mein Schatz» (hazinam), «der schönste Tag in meinem ganzen Leben» (butun hayotimdagi eng go‘zal kun), «Du bist mein Ein und Alles und die Liebe meines Lebens» (Sen mening hamma narsam va hayotimning muhabbati), «lieben» (sevmok), «unterstützen» (qo‘llab-quvvatlamok), «ehrlich» (sodiq), «vertrauen» (ishonmok), «achten» (hurmat qilmoq), «viele schöne Momente» (ko‘p go‘zal lahzalar), «teilen» (bo‘lishmok) kabi ifodalar orqali kelin va kuyov o‘z muhabbatlarini va sodiqliklarini ifoda etadilar. Bu kabi qasamyodlarni boshqa to‘y kuni beriladigan va’dalarda ham uchratishimiz mumkin, chunki bunday ifodalar to‘y va’dalarining asosiy mazmuni hisoblanadi.

Ba’zi va’dalarda «Ich darf Dich von nun an meinen Ehemann / meine Ehefrau nennen, aber vor allem wirst Du für immer mein bester Freund / meine beste Freundin bleiben» [1, 132] (Men Seni bundan buyon erim/xotinim deb atashim mumkin, lekin eng muhimi, Sen mening eng yaxshi do‘stim bo‘lib qolasan) yoki «Du bist nicht nur meine große Liebe, sondern auch mein bester Freund.» (Sen nafaqat mening katta muhabbatim, balki eng yaxshi do‘stim ham bo‘lgansan) kabi ifodalar orqali nafaqat turmush o‘rtoq, balki do‘st ham bo‘lish mumkinligini alohida e’tirof etadilar. Bu hususiyatni nemis xalqidagi eng yaxshi odat ham deb bilish mumkin. Turmush o‘rtoqlari uchun hamma narsaga tayyor bo‘lishlarini «Mit Dir und für Dich würde ich bis ans Ende der Welt gehen» (Sen bilan va Sen uchun men dunyoning oxiriga borar edim) kabi ifodalar bilan o‘z va’dalarida bayon etadilar.

Mazkur va’da bir-birisiz o‘tgan har bir daqiqaning mazmuni yo‘qligini bildiradi. «Alle Zeit der Welt wäre nichts wert, wenn ich sie nicht mit Dir verbringen könnte» (Agar men hamma vaqtimni Sensiz o‘tkazsam, dunyo men uchun hech qanday qiymatga ega bo‘lmagan bo‘lar edi).

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, to‘y va’dalarida o‘zaro hazil-mutoyibali so‘zlarni ham qo‘shib aytishlarini kuzatishimiz mumkin. Masalan, «Ich liebe es, Dir bei Deinen vielen Geschichten zuzuhören und jeden Morgen neben Dir

aufzuwachen. Ja, ich liebe es sogar, meine Lieblingspizza mit Dir zu teilen und freue mich auf jede einzelne Reise, die wir noch zusammen erleben werden» [2, 107] (Men Sening ko'p hikoyalaringni tinglashni va har kuni ertalab yoningda uyg'onishni yaxshi ko'raman. Ha, men hatto Sen bilan o'zimning sevimli pitsamni baham ko'rishni yaxshi ko'raman va biz birgalikda boshdan kechiradigan har bir sayohatni intiqlik bilan kutaman).

Ko'rinib turibdiki, mazkur ifodada «Men hatto Sen bilan o'zimning sevimli pitsamni ham baham ko'rishni yaxshi ko'raman» ifodasi hazil tariqasida aytilganini bilishimiz mumkin.

Hazil-mutoyibali so'zlarni qo'shib aytishlariga yana bir misolni keltiramiz: «Ich liebe es, wie Du immer wieder versuchst, mich zum Lachen zu bringen, auch wenn ich schlecht gelaunt bin.» (Men Sening meni kuldirishga harakat qilishingni, hatto kayfiyatim yomon bo'lsa ham, yaxshi ko'raman). Bu ifoda orqali turmush o'rtoqlar bir-birlariga bo'lgan mehr va hazil-mutoyibalarni qanday qadrlashlarini ko'rsatadilar.

Turmush qurganlaridan so'ng bir-birlarini so'zsiz tushunish, o'zaro hurmat va ardoqlashlarini ifodalash maqsadida quyidagi ifodalarni ham alohida ta'kidlab o'tish odat tusini olganligini kuzatish mumkin. Masalan, «Du weißt, wann es mir schlecht geht und verstehst mich, ohne, dass ich mich erklären muss. Du vertraust mir und gibst mir Kraft» [2, 107] (Sen o'zimni yomon his qilayotganimni bilasan va o'zimni tushuntirmasdan ham meni tushunasan. Sen menga ishonasan va menga kuch berasan).

Yana bir keng tarqalgan va'da ifodasi, kelin va kuyovning bir-birlariga bo'lgan muhabbatlarini qanchalik chuqur ekanligini ko'rsatadi. Masalan, «Du bist der wichtigste Mensch in meinem Leben und ich kann mir ein Leben ohne Dich nicht vorstellen.» (Sen mening hayotimdagi eng muhim odamsan va Sensiz hayotni tasavvur qila olmayman). Bu ifoda orqali kelin va kuyov bir-birlariga qanchalik qadrli ekanliklarini ta'kidlaydilar.

Shuningdek, «Egal, was passiert, ich werde immer an Deiner Seite stehen und Dich unterstützen.» (Nima bo'lishidan qat'i nazar, men doimo yoningda bo'laman va Seni qo'llab-quvvatlayman) kabi ifodalar ham to'y va'dalarida uchraydi. Bu orqali turmush o'rtoqlar bir-birlariga har qanday vaziyatda hamdard bo'lishlarini va yordam berishlarini va'da qiladilar.

Turmush o'rtog'ining quvonch va g'amlarini baham ko'rishga tayyor ekanligini ko'rsatadigan yana bir ifoda, «Deine Freude ist meine Freude, Dein Leid ist mein Leid.» (Sening quvonching mening quvonchim, Sening qayg'uing mening qayg'uim) bo'lib, bu orqali ular bir-birlariga qanchalik yaqin ekanliklarini va bir-birlarining his-tuyg'ularini qanday baham ko'rishlarini ifoda etadilar.

Kelin va kuyovning kelajakdagi orzularini ifodalovchi yana bir ifoda, «Ich freue mich auf unser gemeinsames Leben und all die Abenteuer, die vor uns liegen.» (Men bizning birgalikdagi hayotimiz va oldimizdagi barcha sarguzashtlarni intiqlik bilan kutaman) bo'lib, bu orqali ular birgalikda quradigan hayotlariga bo'lgan umid va intilishlarini ifoda etadilar.

Kelin va kuyovning o'zaro muhabbatlarini va sadoqatlarini ifodalash uchun yana bir keng tarqalgan ifoda «Du bist meine Seele und mein Herz. Ohne Dich bin

ich unvollständig.» (Sen mening qalbim va yuragimsan. Sensiz men to‘liq emasman) yoki «Ohne Dich alles doof» (Sensiz hamma narsa mazmunsizidr) bo‘lib, bu orqali ular bir-birlariga bo‘lgan bog‘liqliklarini va qanchalik muhim ekanliklarini ko‘rsatadilar.

Shuningdek, «Ich verspreche Dir, immer für Dich da zu sein und Dich zu unterstützen, egal, was das Leben bringt.» (Men doimo sen uchun bor bo‘lishga va seni qo‘llab-quvvatlashga va‘da beraman, hayot nima keltirsa ham) kabi ifodalar to‘y va‘dalarining muhim qismlaridan biri bo‘lib, kelin va kuyovning har qanday vaziyatda bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashlarini va‘da qilishlarini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, «Mit Dir an meiner Seite fühle ich mich stark und unbesiegbar.» (Sen mening yonimda bo‘lganingda, o‘zimni kuchli va yengilmas his qilaman) kabi ifodalar ham to‘y va‘dalarida uchraydi. Bu ifoda orqali kelin va kuyov bir-birlariga qanchalik ishonch va kuch berishini ko‘rsatadilar.

Yana bir keng tarqalgan va‘da, «Ich liebe es, jeden Tag mit Dir zu verbringen und gemeinsam neue Erinnerungen zu schaffen.» (Men har kuni Sen bilan birga bo‘lishni va birgalikda yangi xotiralar yaratishni yaxshi ko‘raman) bo‘lib, bu orqali kelin va kuyovning birgalikda o‘tkazadigan va yaratadigan quvonchli lahzalarni qadrlashlarini ko‘rsatadi.

Shuningdek, «Ich verspreche, Dich zu respektieren und Deine Träume zu unterstützen, so wie Du meine respektierst und unterstützt.» (Men seni hurmat qilishga va orzularingni qo‘llab-quvvatlashga va‘da beraman, sen mening orzularimni hurmat qilganing va qo‘llab-quvvatlaganing kabi) kabi ifodalar orqali kelin va kuyovning bir-birlariga bo‘lgan hurmat va tushunishini ko‘rsatadilar.

To‘y va‘dalari nemis xalqining madaniy merosi va marosimlarida muhim o‘rin tutadi. Ular orqali kelin va kuyov bir-birlariga bo‘lgan muhabbat, sadoqat va hurmatlarini ifoda etadilar. Tadqiqotimiz davomida, nemis to‘y va‘dalarining lingvistik va semantik xususiyatlarini tahlil qilishga xarakat qildik. Shuningdek, ushbu va‘dalarning turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashdagi rolini o‘rgandik.

Nemis to‘y va‘dalarida uchraydigan «Du bist meine Seele und mein Herz. Ohne Dich bin ich unvollständig» kabi ifodalar orqali kelin va kuyov bir-birlariga bo‘lgan chuqur bog‘liqliklarini ifoda etadilar. Shuningdek, «Ich verspreche Dir, immer für Dich da zu sein und Dich zu unterstützen, egal, was das Leben bringt» kabi va‘dalar orqali ular har qanday vaziyatda bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashlarini va‘da qiladilar. Bu kabi ifodalar turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi ishonch va qo‘llab-quvvatlashning naqadar muhimligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, to‘y va‘dalarida o‘zaro hurmat va tushunishni ifodalovchi «Ich verspreche, Dich zu respektieren und Deine Träume zu unterstützen, so wie Du meine respektierst und unterstützt» kabi ifodalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu va‘dalar orqali turmush o‘rtoqlar bir-birlarining orzularini hurmat qilish va qo‘llab-quvvatlash muhimligini ta’kidlaydilar.

Tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, to‘y va‘dalari nafaqat kelin va kuyovning hozirgi his-tuyg‘ularini, balki ularning kelajakdagi hayotlariga bo‘lgan intilishlarini ham aks ettiradi. To‘y va‘dalari, shuningdek, o‘zaro ishonch va qo‘llab-quvvatlashga asoslangan mustahkam oila qurish uchun muhim tamoyillarni

belgilaydi. Shu bois, to'y va'dalari nemis xalqining madaniy merosi va oilaviy qadriyatlarini yanada boyitadi va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan an'analarning davom etishiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fischer A. Feste und Bräuche in Deutschland. – Berlin: Sammüller Kreativ GmbH, 2004. – 132 S.
2. Helga Maria Wolf. Die schönsten Bräuche, Rituale und Traditionen. – Berlin: Insel Verlag, 2018. – 107 S.
3. Victoria, B.C. Marriage customs and ceremonies in world religions. Trafford, 2005. –P. 279-282.
4. Monger, George. Marriage customs of the world: an encyclopedia of dating customs and wedding traditions. Santa Barbara, Calif.: ABC-CLIO, 2013.

FRANSUZ ERTAKLARIDAGI HURMAT TAMOYILINING INTENSIONAL XUSUSIYATLARI

Sag'dullayeva Zuhra Ne'matulla Qizi
Samarqand Davlat chet tillar instituti magistranti
Ilmiy rahbar: dots. Suvonova N.N.

Annotatsiya. Ushbu maqolada, nutqiy akt va uning turlari fransuz ertak matnlari misolida tahlil qilingan bo'lib, unda asosan hurmatni bildiruvchi birliklarning pragmatik tahlili aks etgan.

Kalit so'zlar. *hurmat kategoriyasi, verdikativlar, ekzersitivlar, ijobiy va salbiy hurmat strategiyasi.*

Muloqot jarayonida ishtirokchilar o'zaro munosabatlar tengligini ta'minlash uchun kommunikativ maqsadga mos keladigan harakatlar rejasini tuzadilar va ushbu rejani amalga oshirish imkonini beradigan lisoniy vositalarni tanlaydilar. Kommunikativ maqsad ifodasi ikki yo'sinda kechishi ma'lum

P.Braun va S.Lyevinsonlar, kommunikativ maqsadni ifodalash yo'llarining farqiga nisbatan «salbiy va ijobiy hurmat»ni (negative and positive politeness) farqlashni taklif etadilar. Ularning birinchisida o'zgalarning vaqtini olayotganligi, e'tiborni jalb qilayotganligi uchun, ularga yetkazilayotgan «zarar»ning o'rnini to'ldirish ehtiyoji bajariladi. Binobarin, «Kechirasiz, band ekanligingizni bilaman, lekin menga maqolani yozishga yordam bera olmaydizmi?» Lekin xuddi shu iltimos intentsiyasi do'stona vaziyatda, ijobiy hurmat sharoitida boshqa ko'rinish oladi: «Menga ushbu maqolani tugatishga yordamlashib yubor!»

Ikki turdagi hurmat strategiyalarini faollashtiruvchi lisoniy vositalar tuzilishi jihatidan o'zaro farq qiladilar. Masalan, salbiy hurmat strategiyasini (negative politeness strategy) faollashtiruvchi nutqiy tuzilmalar struktura jihatidan mukammalroq ko'rinishga ega bo'lib, ular ko'pincha bilvosita nutqiy aktlarni ifodalovchi tuzilmalar (so'roq gap, shart mayli va hokazo) vositasida hosil boladi. Bilvosita ifodalanayotgan, mazmunan unchalik aniq bolmagan, odatda shakliy jihatdan uzun nutqiy tuzilmalarning qo'llanishi so'zlovchi hurmat va qadriyatni saqlashga urinayotganidan darak beradi.

Professor N.Mahmudov yaqinda e'lon qilgan maqolasida nutqning joyalilik sifatini taminlash uchun so'zlovchi, ifodalamoqchi bolgan mazmundan tashqari,

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

119.	NEMIS NIKOH TO'YLARIDAGI KELIN VA KUYOV VA'DALARINING LINGVISTIK TAHLILI Sidikjon Muminov Mirsobirovich, Qobil Kaxarov Shuhrat o'g'li	376
120.	FRANSUZ ERTAKLARIDAGI HURMAT TAMOYILINING INTENSIONAL XUSUSIYATLARI Sag'dullayeva Zuhra Ne'matulla Qizi Suvonova N.N.	380
121.	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QORISHIQ HOL ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR VA ULARNI BOG'LOVCHI VOSITALAR M.O.Usmonova	383
122.	KO'P KOMPONENTLI QO'SHMA GAPLARGA TURLICHA YONDASHUVLAR Nazarova Sevaraxon Jaxongir qizi	385
123.	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI PAREMIYALARIDA "ISH" KONSEPTINING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI Burxonova Gulrux	387
124.	INGLIZ VA O'ZBEK SPORT TERMINLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI Xabibullayeva Zarnigor Elmurod qizi	390
125.	HOLAT BILDIRUVCHI SO'ZLARINING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SEMANTIK TASNIFI Muzaffarbekova Umidaxon Zayniddin qizi	392
126.	ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ КОМПЛИМЕНТА В АНГЛИЙСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ Xolmuxammedova Sevara Xotam Qizi	399
127.	SEMANTIC FEATURES OF THE PHRASEOLOGICAL UNITS WITH NUMERATIVE COMPONENTS "THREE" IN ENGLISH AND UZBEK Jurayev Ziyodbek Nurmatovich	402
128.	LINGUISTIC AND SEMANTIC CHARACTERISTICS OF PROVERBS WITH THE CONCEPT OF FRIENDSHIP AND ENMITY IN ENGLISH AND UZBEK Abdulazizova Sevara Ganiyevna Abdurahmanova Hulkaroy Tulanbayevna	405
129.	PRAGMATIC AND LINGUOCULTURAL STUDY OF THE CONCEPT "WRESTLING" IN ENGLISH AND UZBEK Matqulov Xosilbek Mavlonovich	407
130.	PROBLEMS OF TRANSLATING OF THE MEANS EXPRESSING THE GENDER SEMANTICS FROM ENGLISH INTO UZBEK Umida Bahodirovna Tuhktamatova	414
131.	ЎЗБЕК ТИЛИДА ОМОНИМЛАРНИНГ ИФОДАЛАНИШИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОХАЗАЛАР Турғунова Э.Э	416
132.	SPORT TERMINLARI ETIMOLOGIYASI VA LUG'AT BOYLLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI Mingboyeva Muborakxon Nabiyevna Sagindikova Rahat Jumabayevna	418
133.	THE CLASSIFICATION AND THE DEFINITION OF COLLOCATIONS Mingboyeva Muborakxon Nabiyevna	421